



CAPSICUM ANNUUM L. NING URUG'LARINING UNIB CHIQISH KO'RSATKICHLARI VA FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI

M.F.Usmonova¹, S.X. O'roqov²

Sh. Rashidov nomidagi SamDU ¹tayanch doktoranti, ²professor
mohigul3305gmail.com, +998941853305

Annotatsiya: Bugungi kunda aholini sifatli oziq ovqat mahsulotlari jumladan sabzavotlar bilan ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Shunday sabzavotlar qatorida *Capsicum annuum* L. (shirin qalampir) yetishtirishga bo'lgan talab ham ortib bormoqada. *Capsicum annuum* L. ni fiziologiyasi o'rganib, eng sifatli va hosildor navlarini ishlab chiqarishga tavsiya etish muhim hisoblanadi.

Kalit so'z: *Capsicum annuum* L., urug', ko'chat, fiziologik, sifat, hosildorlik.

Аннотация: Обеспечение населения качественными продуктами питания, в том числе овощами, является одной из актуальных проблем на сегодняшний день. Среди таких овощей растет спрос на выращивание *Capsicum annuum* L. (сладкого перца). Важно изучить физиологию *Capsicum annuum* L. и рекомендовать выращивание наиболее качественных и продуктивных сортов.

Ключевые слова: *Capsicum annuum* L., семена, рассада, физиология, качество, урожайность.

Abstract: Today, providing the population with quality food products, including vegetables, is one of the urgent issues. Among such vegetables, the demand for growing *Capsicum annuum* L. (sweet pepper) is also increasing. It is important to study the physiology of *Capsicum annuum* L. and recommend the production of the most high-quality and productive varieties.

Keywords: *Capsicum annuum* L., seed, seedling, physiological, quality, productivity.



Kirish. Hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha eng ommabop va talabgir sabzavot ekinlaridan biri bo'lgan shirin qalampir yig'ilib olinadigan maydonlar 2-2,3 mln gektarni tashkil etadi. Bir necha yillardan buyon Xitoy (17,4 mln t), Meksika (2,3 mln t), Turkiya (2,2 mln t), Indoneziya (1,8 mln t) davlatlari shirin qalampir yetishtirish bo'yicha yetakchilik qilmoqda.

O'zbekistonda ochiq maydonlarda ko'p miqdorda shirin qalampirlar ekib parvarishlanmoqda. Mamlakatimiz barcha viloyatlarda shirin qalampirning 47 ta navi ekilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan shirin qalampir mahsulotini asosan Ozarbayjon, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Qirg'iziston, BAA, Polsha, Rossiya, Tojikiston kabi davlatlarga eksport qilinmoqda.

Taqdqiqot natijalari. Ushbu tajribamizni capsicum annuum L. ning hozirgi kunda davlat reeysterida bo'lgan "Sabo" F_1 navida sinovdan o'tkazdik. O'simlikning yaxshi o'sib rivojlanishi uchun o'simlik urug'larining unuvchanligi va o'sish kuchi muhim omillar hisoblanadi. Shuning uchun biz dastlab urug'larni undirish uchun xar xil suyuqliklarda ivitish usullarini amalda sinab ko'rdik.

O'simliklar fiziologiyasi uchun muhim bo'lgan K^{+2} va Ca^{+2} minerallarini o'z ichiga olgan turli xil eritmalaridan foydalanish ham muhimdir (Rubio va boshq. 2003). Umuman olganda, Ca^{+2} o'simlik ichida hujayra shakllanishi va lipid tuzilishini shakllantirishda samarali. Xususan, oddiy mitoz jarayoni sodir bo'lishi uchun oz miqdorda Ca^{+2} kerak bo'ladi. K^{+2} nafas olish, fotosintez, xlorofill hosil bo'lishi, barglardagi suv miqdori va o'simlikda sodir bo'ladigan boshqa ko'plab fiziologik jarayonlarda muhim rol o'ynaydi. Biroq, K^{+2} ning eng muhim xususiyati shundaki, u peptid bog'lanish hosil bo'lishida ishtirok etuvchi fermentlarning faollashtiruvchisi hisoblanadi yuqoridagilarni hisobga olgan holda tajribamizda urug'larni ivitish uchun oddiy suv, 100 va 200 mlM KNO_3 li eritmalar va 50 va 100 mlM $Ca(NO_3)_2$ eritmalaridan foydalandik.



Urug'lar har bir eritmalarda ivitilgandan so'ng, urug'lar ikki guruhga bo'lindi. Birinchi guruh darhol unib chiqish sinoviga olib borildi va shu zahoti urug'lar ekildi, ikkinchi guruh esa eritmalarda eritilgandan so'ng 25°C da 24 soat davomida dastlabki urug'lik namligiga qadar suvsizlantirildi.

Suv va ishqorlar bilan ishlov berish bilan bir qatorda, suvsizlanish sharoitida ham, nazorat qilish bilan solishtirganda shiein qalampir urug'larining normal o'sish foizi va unib chiqish kuchining oshishiga olib keldi.

Xulosa. Natijalar shuni ko'rsatdiki, KNO_3 bilan ishlov berilgan urug'larda tuz kontsentratsiyasining ortishi urug'larning hayotiyligi, shuningdek, keyingi suvsizlanish bilan ishlov berishda quvvatning pasayishiga olib keldi. Yani 200 mlM KNO_3 eritmasi bilan ishlov berilganda unib chiqish kuchi kamayishi kuzatildi. Biroq, $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ bilan ishlov berilganda urug'larda suvsizlanish bilan amalga oshirilganda yashovchanlik va quvvat ortdi. Hayotiylik va quvvat parametrlari bo'yicha eng yaxshi natijalar 100 mlM KNO_3 bilan ishlov berilgandan so'ng suvsizlantirish bilan va 100 mlM $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ bilan astarlashdan keyin suvsizlantirishdan olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Rasulov F.F, Yunusov S.A "Shirin qalampir yetishtirish" 100 kitob to'plamidan 23kitob Toshkent 2021- y.
2. Xo'jayev J.X., O'roqov S.X., Avutxonov B.S., O'simliklar fiziologiyasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlari. SamDU 2019
3. Xaitov M.A, Mashrabov M.I "Sabzavotchilikda ekologik toza, yiqori sifatli mahsulot olish davr talabi". Ekologiya xabarnomasi. Toshkent 2017-y.